

## BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Yo'ldosheva Sarvinoz Ilhom qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich magistranti

Email: [ilkhamovna1998@gmail.com](mailto:ilkhamovna1998@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida kreativligini shakllantirish nazariyasi va ahamiyati yoritilgan, shuningdek, o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish eng muhim omil ekanligi nazariy jihatdan yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari, kreativlik, qobiliyat, tafakkur, mehnatsevarlik, kasbga yo'naltirish, texnologiya darslari.*

Bugungi kunda respublikamizda kreativ fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday yoshlarga ta'lim-tarbiya va bilim berish uchun ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qaroriga muvofiq:

- ✓ respublikada texnik ijodiyot, badiiy ijodiyot maktablarini tashkil etish;
- ✓ o'quvchi yoshlarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, shuningdek, bolalar maktablarining to'garak a'zolari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni olib chiqish maqsadida "Art shop" elektron do'konlarini tashkil etish va sotuvni yo'lga qo'yish;
- ✓ bolalar maktablarida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab "**STEAM – ta'lim**" (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics - matematika) dasturi joriy etish vazifa etib belgilandi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy mehnatga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasb-hunarga yo'naltirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim muammolardan biridir. Shunday ekan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ijodiy mehnatga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiya darslarining o'rni katta hisoblanadi. Texnologiya darslarida o'quvchilar chuqur va mustahkam bilim bilan qurollandilar. Bu jarayonda o'quvchilar tanlagan kasbiga qiziqishi, mehnatkash kishilarga hurmatda bo'lishi tarbiyalanadi.

Har bir texnologiya darslari o'quvchilarni diqqatini, xotirasini, farqlash bilimini, fikr yuritishni, o'z ishini rejalashtirishni va o'z vaqtida amalga oshirishni, o'z-o'zini nazorat qilish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Shuni bilamizki, boshlang'ich sinf umumiy o'rta ta'limning poydevori bo'lib, unda bola shaxsini ilk ko'rinishlari shakllanadi. O'quvchilarni kreativlik qobiliyatini shakllantirishda turli materiallar bilan ishlashda oddiydan murakkabga yo'naltirilsa, yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsagina o'quvchilarning kreativligi yanada tez shakllanib boradi.

1-sinf o'quvchilarining kreativlikka o'rgatishda tabiiy material bilan ishlashda ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblarning nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish, yog'och materiallaridan olinadigan daraxtlarini tanishi va ularning nomlarini bilishi, ayrim gazlama turlari nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarni bilishi, qandolatchilikda ishlatiladigan homashyolar va tayyorlanadigan maxsulotlarni bilishi, kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlashi, ularning rasmini chizish, bo'yash, eng oddiy naqshlar bilan bezash, tugma qadash, oddiy choklarni tikish, gazlamalarning qirqish kabi ko'nikmalarni bilishlari kerak.

2-sinfda texnologiya darslarida ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizish va oddiy bezaklar bilan ishlash, bir necha kasblar sohasida ishlatiladigan asboblarning tuzilishi hamda ishlatilishini bilish, ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvir va naqshlar tuzish, yog'och materiallarning qattiq-yumshoqligi, suvga, zahga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini bilish, gazlamalarning haroratga saqlanishga chidamliligi, tuproq, loy, sopol va boshqa materiallarning asosiy

xususiyatlarini bilish, qog‘oz va karton gazlamalarini qirqish va kesish asboblardan to‘g‘ri foydalanish, kashtachilik va tikuvchilikda qo‘llaniladigan asosiy chok turlarida tikish, ayrim ekinlarni o‘stirishning eng oddiy qoidalarini bilishlari zarur.

3-sinfda har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma ketligi hamda xom ashyoning bilish, ularni so‘zlar va turli tasvirlar, jadvallar orqali ifodalay olish, ommaviy ishlatiladigan mehnat qurollarining turlarini va ulardan to‘g‘ri foydalanishni bilish, qog‘oz va karton, gazlama va boshqa materiallardan oddiy shakldagi gular yasash, sopol buyumlar va kashtachilik buyumlari uchun oddiy naqshlar ishlash, eng oddiy applikasiya va mozaika ishlarini bajarish, milliy hunarmandchilik kasblariga oid eng oddiy iqtisodiy huquq va ekologik masalalarni bilish, loydan milliy o‘yinchoqlar yasash, ularni bo‘yash naqshlar bilan bezash, yog‘och va boshqa har xil materiallardan oddiy buyumlar va o‘yinchoqlar yasash, gazlamalardan oddiy buyumlarni tikish va kashta naqshlar bilan bezash, pazandalikning ayrim texnologik jarayonlarini bajarish kabi vazifalarni bajarishda o‘quvchilarni ijodkorlikka o‘rgatishda, kreativlikka undashga juda ham qo‘l keladi.

4-sinfda esa yog‘ochdan oddiy buyumlar va oziq -ovqat tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda grafik tasvirlarni bajarish hamda ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini turli shakllarda tayyorlash uchun eskizlar chizish, zargarlik, gilamdo‘zlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlikdan foydalanishning eng oddiy usullarini bilish, ayrim kasblar sohasidagi materiallarga ishlov berishning zamonaviy usullari va asbob-uskunalami bilish, har xil materiallardan ko‘p hunarmandchilik buyumlari va o‘yinchoqlar tayyorlash, qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylaklar tikish va kashta gullari bilan bezash, taomlar pishirish uchun sabzavotlar tayyorlashni bilish o‘quvchilarni ijodkorlikka o‘rgatishda qulay deb hisoblaymiz.

Psixologlarning ta’kidlashicha, fikrlash, ya’ni tafakkur - odam miyasida sodir bo‘ladigan jarayon. Sezgi organlari ojizlik qilgan o‘rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o‘rganiladi. Tafakkur aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, vogelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to‘g‘ri va samarali amalga oshirishning asosiy shartidir.

## XULOSA

Demak, umuman fikrlanganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlanganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyatini o'zgalarnikiga o'xshamagan yo'sinda, ularnikidan boshgacha yo'l bilan bilib oladi. Texnologiya mashg'ulotlarini muvafaqqiyatli o'tishi texnologiya ta'lim va tarbiyasida samarali erishish ko'p jihatdan ishni to'g'ri rejalashtirishga bog'liq. Texnologiya darslarini xususiyatlari shundan iboratki, bolalar texnologiya va texnik ijodkorligini rivojlantirishga oid bilimlari ko'nikma va malakalarini xilma-xil amaliy ishlarni bajarish o'zlariga kerakli va ijtimoy ahamiyatga ega bo'lgan buyumlarni tayyorlash jarayoni egallab oladilar. Bu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi har chorak uchun texnologiya darslarini shunday rejalashtirishdan iboratki, bunda o'qituvchi bolalar tomonidan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan kengaytirish va murakkablashtirish ishlarni va bolalar jamoasini kundalik hayotida kerak bo'lgan buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutish kerak.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori.
2. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P "Mehnat va uni o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. TDPU 2007-yil.
3. X. Sanakulov, D. Yakubova R. Lutfitdinova. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Darslik. - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2020.- 224 b.
4. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning nazariyasi va amaliyoti. G.Quttibekova, D.Kulboyeva, T-: O'zbekiston 2020-y